

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA SEZGI
VA IDROKNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

*Andijon Davlat pedagogika instituti
O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Burxonova Shaxzodaxon

Ilmiy maslahatchi: Vahabova O'g'iloy

Elektron pochta: burxonova537@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola 3yoshdan 7yoshgacha bo'lgan bolalarning ruhiy olami, ularning o'ziga xos xulq-atvori va yetakchi faoliyati bo'lgan o'yinning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha davrga o'tishdagi ilk qadamlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, psixika, o'yin, rivojlanish, shaxs.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы психического развития детей дошкольного возраста, значение игры как ведущей деятельности и изменения в этот период.

Ключевые слова: дошкольный возраст, психика, игра, развитие, личность.

Annotation: This article analyzes the stages of mental development of preschool children, the importance of play as a leading activity and changes during this period.

Keywords: Preschool age, psyche, play, development, personality.

Inson shaxsi shakllanishida maktabgacha yosh davri (3 yoshdan 7 yoshgacha) eng muhim va sarmazmun bosqich hisoblanadi. Biroq, ushbu davrning mazmun-mohiyatini to'liq anglash uchun unga qadar bo'lgan bosqichga - ilk bolalik davriga (1 yoshdan 3 yoshgacha) nazar tashlash o'rindir. Negaki, aynan ilk bolalik poydevori qo'yilgan nutq va harakatlar maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Chaqaloqlik davri bolaning atrof muhitga moslashadigan davri hisoblanadi. Chaqaloq to 1 yoshga yetgunga qadar insonlarga nisbatan va voqea hodisalarga nisbatan turli xil harakatlar yoki ovozlari bilan o'z javob reaksiyasini bildiradi, va bu bosqichda asosan ona asosiy rolni o'ynaydi.

Lekin, 3 yoshdan keyin aksariyat bolalar ota - onalar va yaqinlarining yordamisiz vazifalarni bajarishga intiladi, va bu jarayonda inson organizimda moslashish va ongda idrok hamda sezgi singari psixologik jarayonlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuzaga keladi. Sezgilari biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. [3. 140-b.] Ana endi bizda savol tug'iladi, bu jarayon barcha bolalarda kuzatiladimi? Yo'q albatta bu jarayon shakllanishi uchun chaqaloqlik davri hamda ilk homila shakllangan bosqichga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki, aynan o'sha davrda onada bo'layotgan

o'zgarishlar, misol uchun stress yoki bo'lmasam xursandchiliklar keyinchalik chaqaloqda o'z aksini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mutaxassislarning fikriga ko'ra chaqaloq embrionlikdan homila davriga o'tgan bosqichida asosan 22-24 hafta oralig'ida onasining ovozi eshita boshlaydi. Tabiiyki, bola 3 yoshga yetgandan keyingi davrda "men o'zim" fenomeni paydo bo'ladi. U endi mustaqil ravishda ovqat yeyishga, kiyinishga va olamni o'zi kashf qilishga urinadi. Aynan shu intilishlar uning irodasini shakllantiradi. "Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama – qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi"[1; 131-b]. Bu davrda bolani nafaqat to'g'ri yo'lga, balki to'g'ri tarbiya orqali kelajak qurishiga undovchi shaxslar jamiyat a'zolari va ota - ona muhim hisoblandi. Bolaning 3 yoshdan keyingi mustaqillikka intilishi uchun ota - onadan katta mas'uliyat va yondashuv talab qilinadi. Agar, ota - ona bolaning men o'zim deyishiga imkon bersa, unda tashabbus qilish qobiliyati shakllanadi. 7 yoshgacha bo'lgan davrdagi bolalar asosan tajriba qilishga intiladilar, va "nega bunday?", "nima qilsam bo'ladi?" degan savollar paydo bo'ladi. Agar, aynan shu davrlarda ota - ona farzand bilan fikr almashib uni tinglasa, maslahatlashsa, farzandining fikrlariga quloq tutib, kerakli paytda xatolarini to'g'ri tushintirsa bolaning shaxsiy fikrini qo'rqmay bayon qilish va o'z fikrlariga nisbatan cheklov qo'ymaslik hissi rivojlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bola atrofdagi voqelikni va ijtimoiy munosabatni aynan ota- onasi orqali o'rganadi. Agar, oilada sog'lom psixologik muhit va o'zaro ishonch bo'lsa, bolaning idroki va nutqi jadal rivojlanadi. Aksincha, ota-onaning e'tiborsizligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi bolada turli to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Yana shunday muhim masalalardan biri tanbeh va tanqidlar bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Qo'ldan kelgancha bolaga qattiq gapirib tanqid qilmaslik va boladan talab qilayotgan vazifalarimizni avvalo o'zimiz bajarishimiz kerak. Chunki, ular kuzatuvchan va aytganimizni emas qilganimizni takrorlashga harakat qilishadi.

Bolalarning xohish istalarini inobatga olish masalasi ham alohida ahamiyatga ega, bunga oddiy misol ular o'ynashni xohlayotgan o'yinchoqlar, bajarishni xohlayotgan ishlari yoki uy hayvonlarini parvarish qilishga bo'lgan qiziqishi, albatta bularni ham inobatga olish har bir ota-onaning burchi va vazifasi shu bilan bir qatorda, bolaning psixologiyasi va kelajakdagi ijtimoiy hayoti uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin - bu uning asosiy mehnatidir. Bola o'yinda "shifokor", "o'qituvchi", yoki "ona" rolini o'ynaganda, u jamiyatdagi munosabatlarni va mas'uliyatni his qilishni o'rganadi. Har qanday o'yinning qoidasi bor. Bu qoidalar bolada o'zini jilovlash (iroda) sifatlarini shakllantiradi. Oddiy toychoqni "ot" qilib minishni bolaning tasavvur dunyosi va kreativlik fikrlashini o'stiradi. Kreativlik va qiziqish bor joyda asta sekin qobiliyatlar ham ochilib rivojlanib boradi. Bolalik davrida u yoki bu qobiliyatlarning atrofdagi odamlar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik

xuddi ana shu qobilyatlari tufayli jahonda shon-shuhrat qozonishga musharraf bo'lgan juda ko'p allomalarning nomi ma'lum. Masalan, nisbiylik nazariyasi asoschisi Albert Eynshtey, yangi geometriya yo'nalishi asoschisi Nikolay Lobachevskiy shular jumlasidandir [1.181-b]. Maktab yoshiga yetgan bola shunchaki chiroyli sumka taqishni emas, balki yangi narsa o'rganish, yangi do'stlar bilan tanishish, harflarni qanday qilib yozishni o'rganishni xohlaydi. Barchaga ma'lumki, maktabda dars 45 daqiqa davom etadi. Shuning uchun maktabgacha davrning oxirida bolada diqqatni uzoq vaqt bir joyga to'plash ko'nikmasini o'yinlar orqali rivojlantirish lozim. O'yinlar esa bolaning tengdoshlari bilan birgalikda amalga oshiriladi, bu esa bolaning insonlar bilan oson chiqishib ketish kabi imkoniyatlarini ochib beradi. Bolalarga "Katta odam va bola" roli o'yinini taklif etish. Bolalar juft-juft qilib ajratiladi. Rollar almashib – almashib ijro etiladi. "Bola" ga u "katta odam" ga berilishi lozim bo'lgan savollar kartochkasi beriladi. Agar "katta odam" to'liq javob bermasa, "bola" qo'shimcha savollar beradi [2. 153-b]. Bolani majburlab kitobga o'tqazish emas, balki qiziqarli mantiqiy o'yinlar orqali unda o'qishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish - maktabgacha ta'limning eng to'g'ri yo'lidir. O'yinlar esa bevosita sherik bilan, ya'ni o'rtoqlar bilan amalga oshiriladi. Ba'zi bolalar o'yin mashg'ulotlarni o'zi yoki bo'lmasam tasavvuriy qahramonlar, obrazlar bilan amalga oshiradilar. Albatta bolada do'stlarning ko'p bo'lgani yaxshi. Ammo, ularning tarbiyasini bolaga ta'sir qilishiga ham e'tibor berish ota - onaning asosiy vazifalaridan biridir. Maktab bu katta jamoa. Bog'cha yoshidagi tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rgangan bola maktabda ham qiynalmaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davri inson psixikasining shakllanishida eng muhim poydevor vazifasini o'taydi. Bu davrda bolaning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari o'zining yangi bosqichiga ko'tariladi. Bu jarayon bevosita bola atrofidagi ijtimoiy muhit va ota – ona bilan muloqotga bog'liqdir. Bolaning 3 yoshdan boshlanadigan mustaqillika intilishi va 7 yoshgacha bo'lgan "kichik tadqiqotchilik" faoliyati uning kelajakgadi xarakterini belgilab beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalarning xohish – istaklarini inobatga olish, ularga tanlov huquqini berish va o'yinlar orqali bilim berish eng samarali tarbiya usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E. G'. G'oziyev. Psixologiya Toshkent-2008.
2. Z. Nishanova. G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent-2006.
3. F. I. Xaydarov, N. I. Xalilova. Umumiy psixologiya Toshkent-2010.
4. Vaxabova, O. G. (2024). GLOBALASHUV SHAROITIDA AXBOROT MUHITINING YOSHLAR IJTIMOY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (12 (145)), 46-51.
5. O'gilxon T, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22